



“TUSHUNCHALAR TAHLILI” METODINI“ AVTOMOBIL YO‘LLARINI  
EKSPLUATATSIYA QILISH” FANIDA QO‘LLASH

X.X.Aripov

*t.f.n., Toshkent davlat transport universiteti dotsenti*

I.B.Xoshimov

*Toshkent davlat transport universiteti assistenti*

E.T.Yo‘ldoshev

*Toshkent davlat transport universiteti 2-bosqich magistranti*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda avtomobil yo‘llari muhandisligi bo‘yicha maxsus fanlarni o‘qitishda ko‘pgina zamonaviy pedagogik texnologiyalar qo‘llanib kelinmoqda. Ushbu maqolada “Tushunchalar tahlili” pedagogik texnologiyasining afzalliklari, uni qo‘llanish tartibi, qo‘llashda talab etiladigan qonun qoidalar va ushbu texnologiyadan samarali foydalanish yo‘riqnomasi keltirilgan. Shuningdek “Tushunchalar tahlili” pedagogik texnologiyasini amalda bakalavr boshqichi talabalariga qo‘llash bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar haqida aytib o‘tilgan.

**Kalit so‘zlar:** *Pedagogik texnologiya, pedagogik innovatsiya, tarqatma material, taqdimot, muhokama, tahlil, yo‘l qurilish materiallari.*

Bizga ma‘lumki, bugungi kunda rivojlanib borayotgan mamlakatimizda ta‘lim sohasiga bo‘lgan e‘tiborning o‘rni beqiyosdir. Shu jumladan, oliy ta‘lim muassasalarida, maxsus fanlarni o‘qitishda ta‘lim texnologiyalardan foydalangan holda mashg‘ulotlar olib borish, qolaversa, xorijiy pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamonamizning ustuvor yo‘nalishlariga aylanib, imkoniyatlar eshiklarini keng ochmoqda. Maxsus fanlarni o‘qitishda yangi innovatsion texnologiyalardan foydalanib, dars mashg‘ulotlarni olib borishda samarali natijalarga erishilmoqda[1].

**Uslubning mohiyati:** Ushbu uslub o‘tilgan (chorak, semestr yoki o‘quv yilida tugagan) o‘quv predmeti yoki bo‘lim barcha mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, biron-bir mavzu bo‘yicha o‘qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda o‘z izohlarini berish, shu orqali o‘z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o‘qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha talabalarni baholay olishga yo‘naltirilgan.

**Uslubning maqsadi:** Talabalarni mashg‘ulotda o‘tilgan mavzuni egallaganlik va mavzu bo‘yicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirib olinganlik darajalarini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o‘zlarining bilim darajalarini baxolay olish, yakka va guruhlarda ishlay olish, safdoshlarining fikriga xurmat bilan qarash, shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatish[2,3].

**Tushunchalar va atamalar:**

Folgoizol-qalinligi 0,2-0,5 mm aluminiy qog‘ozining ikki tomoniga bitum qoplangan o‘rama material. U hech nam o‘tkazmaydigan ostki qismi bitum-rezina bilan qoplangan. Egilganda sinmaydi, chirimaydi va mustahkam.

Folgoruberoid-aluminiy folgani ikki tomoni bitum mastikasi bilan qoplangan bo'ladi. Yer osti va gidrotexnik inshootlarda ishlatiladi.

Gidroizol-Asbest kartonni neft bitumi bilan shimdirilgan gidroizolyatsion material. U yer osti va gidrotexnik inshootlarda ishlatiladi.

Tol-Tombop kartonni kartonga shimdirib, ustiga qoplab qum yoki mayda mineral kukun sepib olinadigan o'rama material.

Mastika-Organik bog'lovchi materiallarning (bitum, karton, smola) to'ldirgichlar (kaolin, asbest, tuyilgan ohaktosh, soz tuproq) bilan qorishtirib ishlangan bo'tqasimon material mastika deyiladi.



**Uslubning qo'llanishi:** o'quv mashg'ulotlarining barcha turlarida (dars boshlanishi yoki dars ohirida, yoki o'quv predmetining biron-bir bo'limi tugallanganda) o'tilgan mavzuni o'zlashtirilganlik darajasini baholash, takrorlash, **mustahkamlash** yoki **oraliq va yakuniy nazorat o'tkazish** uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo'ljallangan. Ushbu uslubni mashg'ulot jarayonida yoki mashg'ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foydalansa bo'ladi.

**Mashg'ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro'yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

**Izox:** reja bo'yicha belgilangan mavzu asosida hamda o'qituvchining qo'ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o'tkazish mo'ljailangan bo'lsa guruh o'quvchilari soniga, agar kichik guruhlarda o'tkazish belgilangan bo'lsa, u holda guruhlar soniga qarab, tarjima materiallar tayyorlanadi).

**Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:**

- talabalarni guruhlarga (sharoitga qarab) ajratiladi;
- talabalar mashg'ulotni o'tqazishga qo'yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi;
- tarqatma materiallar guruh a'zolariga tarqatiladi.
- talabalar yakka tartibda o'tilgan mavzu yoki yangi mavzu bo'yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar;
- talabalar tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalar yoniga egallagan (yoki o'zlarining) bilimlari asosida (berilgan tushunchalarni qanday tushungan bo'lsalar shunday) izox yozadilar (yakka tartibda);
- o'qituvchi tarqatma materialda mavzu bo'yicha berilgan tushunchalarni o'qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to'g'ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali (imkoni bo'lsa) tanishtiriladi;



• har bir talaba to'g'ri javob bilan belgilangan javoblarning farqlarni aniqlaydilar, kerakli tushunchaga ega bo'ladilar, o'z-o'zlarini tekshiradilar, baholaydilar, shuningdek bilimlarini yana bir bor mustahkamlaydilar.

“Tushunchalar tahlili” uslubidan bir darsning o'zida dars boshlanishida o'tgan mavzuni takrorlash, mustahkamlash yoki yangi mavzu bo'yicha talabalarning dastlabki bilimlari, qanday tushunchalarni egalaganliklari va shu darsning oxirida bugungi mavzudan nimalarni bilib olganliklarini aniqlash uchun ham foydalanish mumkin[4,5].

Quyidagi mashg'ulotda foydalaniladigan tarqatma tariqasida keltiramiz (ilova)

Ilova

Tushunchalar	Mazmuni

Ushbu ta'lim texnologiyasini Toshkent davlat transport universitetining Avtomobil yo'llarini qurish va ekspluatatsiya qilish kafedrasida Avtomobil yo'llarini ekspluatatsiya qilish fani “Avtomobil yo'llarini saqlash va ta'mirlash” mavzusida bakalavr bosqichi talabalariga qo'llandi. Bunda talabalarda dars jarayonida mantiqiy fikrlash, o'z fikrlarini mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, o'zlarini baholash, yakka va guruhlarda ishlashga, boshqalar fikriga hurmat bilan qarash qobiliyatlari nomoyon bo'ldi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, talabalarni dars jarayoniga qiziqishini oshirish va dars mashg'ulotlarini tushunarli bo'lishi uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash zarur. Texnik fanlarni o'qitishda pedagogik texnologiyadan foydalanish ta'lim natijalarini oshirishda samarali bo'ladi deb o'ylayman. Texnologiyani qo'llash orqali talabalar yangi tushunchalar, amaliy ko'nikma va bilimlarga ega bo'lishi, mantiqiy fikrlash, shaxsiy fikrga ega bo'lishiga erishish mumkin. Shuningdek tushunchalar tahlili texnologiyalari talabalarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOT VA HAVOLALAR:

1. Z.K Ismailova, P.M Maxsudov, O.K Ergashev //“Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi”// Darslik

2. Бабанский Ю //O'qitish samaradorligini oshirishning didaktik asoslari haqida.// M.: Pedagogika - 2006 yil



3. Аршинов В. И., Буданов В. Г. //Развитие "педагогической технологии" и проблемы теории обучения// Москва: Вопросы философии. – 2017.

4. Q.X Azizov //“Maxsus fanlarni o’qitish metodikasi”// O’quv qo’llanma. TAYLQEI. Toshkent 2019 y

5. <https://baxtiyor.uz/oqituvchilar-uchun-barcha-fanlardan-metodlar-le-vignette>